

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025  
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                                                                                                             |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova</b><br>Dual ta'lim tizimi oliy ta'limda: xalqaro tajribalar, samaradorlik va O'zbekiston konteksti .....                             | 6   |
| <b>Л.К.Орынбаева, У.С.Марчибаева, Е.К.Сейсенбеков</b><br>Актуальность программ повышения квалификации в формировании компетентностей педагога Казахстана .....              | 12  |
| <b>Н.Ю.Костюнина, С.У.Бичурина</b><br>Неблагополучная семья как фактор девиантной виктимности.....                                                                          | 17  |
| <b>O.N.Fozilova, Sh.S.Rayimova</b><br>Bola shaxsi rivojlanishida muloqotning o'rni .....                                                                                    | 22  |
| <b>A.S.Toshmatov</b><br>The role of self-efficacy in teaching foreign languages to improve writing skills.....                                                              | 25  |
| <b>G.Sh.Latipova</b><br>Malaka oshirish tizimi tinglovchilarining shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari .....                                | 31  |
| <b>Sh.D.Iskanderova</b><br>Fundamentals of pedagogical training: instructional strategies for early learners .....                                                          | 38  |
| <b>I.M.Saidov</b><br>Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy faollikni shakllantirishning tamoyillari hamda uning tarkibiy qismlari.....   | 43  |
| <b>Н.Ш.Абдуллаева</b><br>Characteristics and evolution of middle English language.....                                                                                      | 48  |
| <b>M.A.G'ofurova</b><br>Bo'lajak o'qituvchilarning professional rivojlantirish texnologiyalari.....                                                                         | 54  |
| <b>N.F.Yigitaliyeva</b><br>Pediatriya ishi yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda simulyatsiyalar orqali kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi ..... | 59  |
| <b>T.T.Shoymardonov</b><br>Oliy ta'lim pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish tajribasi: tahliliy yondashuv .....                                      | 63  |
| <b>S.M.Abdullayev</b><br>Fanlararo hamkorlik asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalalari.....                     | 69  |
| <b>D.O.Djalilova</b><br>Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germeneytik kompetentsiyasini rivojlantirishning metodologik jihatlarini .....                           | 73  |
| <b>D.I.Gulamova</b><br>Evfemizmlarning o'rganilish tarixi.....                                                                                                              | 77  |
| <b>B.T.Jumayeva</b><br>Gender yondashuv asosida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari .....                                                | 81  |
| <b>A.R.Saydullayeva, K.L.Ro'ziyeva</b><br>Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari.....                               | 81  |
| <b>A.R.Saydullayeva, M.E.Nabiyeva</b><br>Zararli odatlarga qarshi pedagogik immunitet tushunchasi va uning ahamiyati. ....                                                  | 89  |
| <b>G'.R.Israilov</b><br>Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli .....              | 93  |
| <b>A.X.Karimov</b><br>Oliy tibbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning nazariy jihatlarini .....                                                                          | 97  |
| <b>М.Н.Насритдинова</b><br>Инновационная артпедагогика как ресурс развития художественно-творческой компетентности у будущих педагогов в цифровую эпоху.....                | 100 |



UO'K: 37.1174

**MALAKA OSHIRISH TIZIMI TINGLOVCHILARINING SHAXSIY-KREATIV SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI****МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТНОГО И ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ОБУЧАЮЩИХСЯ В СИСТЕМЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ****METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING THE PERSONAL AND CREATIVE POTENTIAL OF TRAINEES IN THE SYSTEM OF ADVANCED TRAINING****Latipova Gavharoy Shavkatovna** 

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Maqolada malaka oshirish tizimi tinglovchi pedagoglarning ijodiy salohiyati uning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, faoliyati davomida uchraydigan muammolarning sabab va yechimlari asosiy masala sifatida ko'rilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, kattalar ta'limida, faoliyatida shaxsiy rivojlanishi uchun to'siq bo'layotgan omillarni tahlil qilish hamda ularga motivatsiya beradigan sabablarni o'rganib chiqishdan iborat. Amaliyotdagi holatlar kattalarda kreativlikni namoyon qilishiga ulardagi shaxsiy-xarakter xususiyatlar bilan birga tashqi muhit omili ham to'siq bo'layotganligini ko'rsatmoqda. Ushu sabablarga ko'ra, malaka oshirayotgan tinglovchi-pedagoglarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishda boshqalar bilan muloqotni yo'lga qo'yish san'ati, turli sohalarida qadriyat munosabatlarini tashkil etishda tashabbuskorligi, bilim va faoliyatidagi ijtimoiy faollik hamda tinimsiz kasbiy qobiliyatlarini yanada rivojlanishiga yordam beradigan "Divergent fikrlash testlari", "TORRANCE ijodiy fikrlash testlari", "Expert baholash" usullari tavsiya sifatida keltirilgan. O'tkazilgan empirik tadqiqot natijalariga ko'ra mutaxassislar o'zlariga bog'liq bo'lgan obyektiv subyektiv sabablarni bartaraf etish usullari bilan tanishib chiqqan. Natijada kasbiy faoliyati hamda ijtimoiy hayotga nisbatan munosabatlari ijobiy tomonga rivojlangan. Xulosa sifatida shaxsiy-kreativ salohiyat ijtimoiy hayotda va kasbiy sohadagi faoliyat davomida shaxsni rivojlantirishga undaydigan kuch motiv vazifasini bajaradi deyishimiz mumkin.

**Аннотация**

В статье рассматривается как ключевой вопрос творческий потенциал педагогов, проходящих профессиональное развитие, развитие их профессиональных и личностных качеств, а также причины и пути решения проблем, возникающих в ходе их работы. Цель — проанализировать факторы, препятствующие личностному развитию взрослых в их образовании и работе, а также изучить мотивирующие их причины. Практические ситуации показывают, что проявлению творческих способностей у взрослых людей, помимо личностных особенностей, препятствуют и внешние факторы среды. По этим причинам методики «Тесты на дивергентное мышление», «Тесты на творческое мышление ТОРРАНСА» и «Экспертная оценка» рекомендуются для содействия развитию личностного и творческого потенциала будущих педагогов в искусстве установления коммуникации с другими людьми, инициативности в установлении ценностных отношений в различных областях, социальной активности в познании и деятельности, непрерывного профессионального развития. По результатам эмпирического исследования специалисты ознакомились с методами устранения объективных и субъективных причин, зависящих от них. В результате их профессиональная деятельность и отношения с общественной жизнью развивались позитивно. В заключение можно сказать, что творческий потенциал личности выступает в качестве мотивирующей силы, способствующей развитию личности в общественной жизни и в профессиональной деятельности.

**Abstract**

The article considers the creative potential of teachers undergoing professional development as the main issue, the development of their professional and personal qualities, the causes and solutions to the problems encountered during their work. The intended purpose is to analyze the factors that hinder their personal development in adult education and work, and to study the reasons that motivate them. Practical situations show that, in addition to their personal and character traits, external environmental factors also hinder the manifestation of creativity in adults. For these reasons, in developing the personal and creative potential of teachers undergoing professional development, the following methods are recommended: "Divergent thinking tests", "TORRANCE creative thinking tests", "Expert assessment", which help to further develop their professional skills in the art of establishing communication with others, initiative in establishing value relations in various

## PEDAGOGIKA

fields, social activity in knowledge and work, and continuous professional development. According to the results of the empirical research, specialists have become familiar with the methods of eliminating objective and subjective reasons that depend on them. As a result, their professional activities and attitudes towards social life have developed in a positive direction. In conclusion, we can say that personal and creative potential acts as a motivating force that encourages the development of the individual in social life and during professional activities.

**Kalit so'zlar:** shaxsiy deformatsiya, ijodiy tafakkur, ijodiy fikrlash modeli, kasbiy stress, ijodiy trening, kasbiy ijodkorlik, deformatsiya, kreativlik, intellektual salohiyat.

**Ключевые слова:** личностная деформация, творческое мышление, модель творческого мышления, профессиональный стресс, творческое обучение, профессиональное творчество, деформация, креативность, интеллектуальный потенциал.

**Key words:** personal deformation, creative thinking, creative thinking model, professional stress, creative training, professional creativity, deformation, creativity, intellectual potential

## KIRISH

Bilamizki, bugungi kunda globallashuv jarayoni, texnika taraqqiyoti hayotimizning har jabhasiga tezlikda kirib kelmoqda. Shunday sharoitda inson omili, uning g'oyalari, ijodkorligi eng asosiy jihatga aylanmoqda. Insonni shaxs sifatida shakllanishida pedagoglik kasbining ahamiyati beqiyos. O'qituvchilik – bu “yuqori turdagi” psixologik jihatdan murakkab kasb (ijodkorlikning ustunligi va uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj) bo'lib, o'ziga xos xususiyatlar, hissiy va intellektual kirishmalar hamda faoliyat sub'yektining o'z ob'yektiga shaxsiy hissasi mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bu murakkablik o'qitish bosqichlariga qarab turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi, ya'ni maktab bosqichidan boshlab oliy ta'lim hamda malaka oshirish tizimida ham o'qituvchi pedagoglarda o'ziga xos kasbiy xususiyatlar mavjud. Bunda uslub hamda pedagog diqqati qaratilgan auditoriya o'zgarib boradi. Har qanaqa bosqichda ham pedagog shaxsni har tomonlama kamolga yetkazishi, rivojlanishiga sababchi bo'ladigan sub'yekt sifatida qaraladi. Bu jarayon tanlagan kasbi bo'yicha faoliyat yuritayotgan, amaliy jihatdan ko'nikma va malakalarni egallagan malaka oshirish jarayonidagi tinglovchilarga nisbatan qay holatda bo'ladi? Bunda asosan tinglovchilarga yangi bilimlar berish bilan birga, ularda ijodkorlikni yanada ko'proq rivojlantirishga qaratiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Kreativlik” so'zi ingliz tilidagi “creativity” so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida “ijodkorlik”, “yaratuvchanlik” kabi ma'nolarni anglatadi. Bu atama yangi g'oyalar yaratish, mavjud muammolarni o'zgacha yechimlar bilan hal qilish, yangilik kiritish qobiliyatini ifodalaydi. “Kreativlik” tushunchasi uzoq tarixga ega bo'lib, uning ildizlari qadimgi Yunoniston falsafasiga borib taqaladi. Aristotel kabi faylasuflar insonning ijodiy qobiliyatlari haqida fikr yuritganlar. “Kreativlik” atamasi XX asrning boshlarida psixologiya fanida keng qo'llanila boshladi. J.P. Guilfordning 1950-yillarda Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasidagi nutqi kreativlikni ilmiy o'rganishga turtki bo'ldi. Bundan tashqari, Guilford intellekt tuzilishi modelini yaratuvchisi sifatida keng tanilgan. Shaxsning kreativligi inson faoliyatining turli sohalarida qarama-qarshilik, muammoli vazifaning mavjudligi, ijtimoiy, shaxsiy ahamiyatlilik, jarayon yoki natijaning yangiligi va o'ziga xosligi (V.I.Andreev), intellektual qobiliyatlar orasida alohida tur sifatida har kimga xos bo'lgan, ammo atrof-muhit ta'siri ostida shaxs faoliyatida pasayib boradigan alohida yo'nalish (amerikalik psixolog Avram Maslou) hisoblanadi. 1960-yillarga kelib, kreativlik biznes va ta'lim sohalarida tobora muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu davrda kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan turli xil dasturlar va treninglar paydo bo'ldi. Hozirgi kunda kreativlik nafaqat san'at va adabiyot sohalarida, balki fan, texnologiya, biznes va kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Kreativlik insonning moslashuvchanlik, muammolarni hal qilish va yangilik yaratish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Tahlil etilgan tadqiqotlarda kreativlik quyidagi yo'nalishlarda o'rganilgan:

**birinchi** yo'nalish – kreativlikni yaratilgan mahsulotlarning xususiyatlari bo'yicha o'rganadi, e'tibor qaratiladi;

**ikkinchi** yo'nalishda kreativlik jarayon sifatida o'rganiladi. Har qanday jarayon, shu jumladan, kreativ jarayon ham boshlanishi, davomiyligi, o'zgarishi va shunga mos ravishda qandaydir yakuniga

ega bo'ladi. Bunday holda ob'yektiv yoki ideal kreativ mahsulot yaratilishi emas, kreativ fikrlash jarayonining turli bosqichlari, darajalari va turlari aniqlanadi;

**uchinchi** yo'nalishda kreativlik qobiliyat sifatida tahlil etiladi;

**to'rtinchi** yo'nalishda kreativlik shaxsning o'zini o'zi faollashtirishi, o'zini o'zi rivojlantirishi jarayoni bilan bog'lanadi va o'zini o'zi faollashtirgan mutaxassisning kreativligiga e'tibor qaratiladi[1.24]. Demak, o'rganilgan ma'lumotlardan shuni bilish mumkinki, kreativ fikrlaydigan pedagogga qo'yiladigan zamonaviy talablar shundan iboratki, o'z ishiga ijodiy yondashadigan, o'quv jarayonida auditoriya bilan muloqot qiladigan, yangi innovatsion tadqiqotlarga undaydigan, tinglovchilarni o'ylashga, yangi g'oyalar yaratishga va muammolarni o'zgacha yechishga undaydigan o'qituvchidir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda kreativlikni yo'nalishlari ochib berilgan bo'lsa, quyida kreativlikning tarkibiy komponentlarini alohida o'rganib chiqishimiz talab etiladi:

1. "Intellectual (aqliy).
2. Axloqiy (o'z-o'zini boshqarish).
3. Motivatsion (maqsadli).
4. Emotsional (his-hayajonli). Bulardan tashqari, kreativ layoqatni o'zi ham o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi, ya'ni:

1. Kreativ maqsad.
2. Ijodiy intilish.
3. Kreativ (ustanovka) qurish.
4. Kreativ yo'nalish.
5. Kreativ ifodali akt.
6. Kreativ o'z-o'zini boshqarish.
7. Kreativ faollik.
8. Kreativ intilishlar darajasi" [2.2]

Pedagogning kreativligi uning kasbiy va ilmiy faoliyatida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Kreativlik o'qituvchi kasbiy faoliyatida ham, ijodiy qobiliyatida ham, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishini namoyon qiladi. Pedagogning shaxsiy faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk tarzda rivojlanayotganligini bildiradi. Pedagogda kurashuvchanlikni oshiradi. Bugungi global jarayonlar, texnika taraqqiyoti, axborotlar oqimida yashayotgan yoshlarning dunyoqarashi ham turlicha bo'lib, aynan shu sabab pedagogning o'z ustida yanada ko'proq ishlashini taqazo etadi. Bu kabi jarayonlar ta'sirida ayrim holatlarda pedagog kasbiga nisbatan turlicha qarashlar ham o'zgarimoqda, ya'ni "bu kasb boshqalar ustidan nazoratsiz hokimiyat" bilan tavsiflanadi.[3.56] "O'qituvchilarning kasbiy faoliyati stress omillari va qiyinchiliklarga to'la vazifalar guruhini o'z ichiga oladi" [4.24]. Muammolardan biri o'qitish jarayonida shaxsiy va kasbiy deformatsiyalar xavfi va ularning birlashmasidir. Bu ham o'qituvchining faoliyatiga, ham butun hayotiga salbiy ta'sir qiladi. Shaxsiy va kasbiy deformatsiya o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy hayotining uch sohasida – shaxsiy, ish, munosabatlarda paydo bo'ladigan yangi shakllanishlarni anglatadi. Yangi shakllanishning mohiyati ushbu sohalarning har biri o'rtasidagi dinamik muvozanatning buzilishidadir [5.45]. "O'quv muhitida kasbiy deformatsiyaning tarqalishi 56% ni tashkil qiladi; pedagogik deformatsiyaga moyillik 32% da aniqlandi; 12% da odamning deformatsiya belgilari qayd etilmagan" [6.64]. Faoliyati deformatsiyalangan mutaxassis quyidagi xususiyatlarga ega: haddan tashqari o'ziga ishonuvchanlik (ayniqsa, og'zaki), avtoritarizm, boshqa kasbiy guruhlariga nisbatan qat'iy fikrlash, rasmiyatchilik, an'analar va me'yorlarga rioya qilish (ba'zan uning qarashlarini buzish), o'zini-o'zi hurmat qilish va boshqalar. Kasbiy deformatsiya muammosi bilan shug'ullanuvchi ko'pchilik mualliflar kasbiy deformatsiyaning "oldini olish" va "yengish" nuqtayi nazaridan yondashuvlarni shakllantirganlar. Deformatsiyaning o'zgarishi o'qituvchi pedagog tomonidan ajralmas ijobiy tajriba sifatida qabul qilinadi. Deformatsiyaning bartaraf etishga qaratilgan murojaatlarda o'qituvchilar o'zlarining tajribasiga nisbatan tajovuzni qabul qilishadi. Bu qarshilikni keltirib chiqaradi, psixologik himoyani qo'zg'atadi, bu esa yengib bo'lmaydigan vazifani bajaradi. Fan va amaliyot oldida bunday pedagogik shart-sharoitlar va qarshilik ko'rsatmaydigan deformatsiya xavfini minimallashtirish usullarini asoslash vazifasi turibdi. Xavf deformatsiyasida

mavjud bo'lgan salbiy imkoniyatlarni ijobiy imkoniyatlarga aylantirish mafkurasidagi deformatsiyani yengish uchun mafkuradan e'tiborni o'zgartirish uchun hal qiluvchi talab amalga oshirilishi mumkin. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limda pedagog resurslarini rivojlantirishda shaxsiy va kasbiy deformatsiya xavfi o'zgarishining nisbiy barqarorligi o'qitish jarayonining qisqa davom etishi bilan ta'minlanadi, bu albatta, transformatsiya boshlanishida tayyorgarlikni nazarda tutadi, va ta'lim muassasasi haqiqatlarida pedagoglarni ilmiy izlanishlar jarayonidagi qo'llab-quvvatlash transformatsiyaning boshlanishini belgilab beradi. Bizning fikrimizcha, o'qituvchi pedagog uchun ijodiy treninglar kasbiy deformatsiyani bartaraf etishda profilaktik va o'zgartiruvchi rol o'ynashi mumkin. Bunday jarayonda, o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi fanlar bo'yicha bilimlarni o'tkazishdan tashqari shaxsiy rivojlanish vositasi bo'lishi mumkin, ya'ni nafaqat kasbiy kompetentsiya bilan, balki shaxsning tuzilishidan kelib chiqadigan boshqa kasbiy tarkibiy qismlar bilan ham ishlaydi. Ana shunday tarkibiy qismlardan biri malaka oshirish tizimi tinglovchining individual ijodiy yo'nalishidir. Ko'rinib turibdiki, tinglovchilar uchun eski ta'lim shakllari faqat o'qituvchi shaxsining kognitiv tuzilishiga ta'sir qiladi, xuddi shunday bir tomonlama maktab va oliy ta'limga ta'sir qiladi, kasbiy deformatsiya sharoitlarini yaratadi. Kasbiy turg'unlikning oldini olish uchun zarur bo'lgan qadriyatlar va hayotiy ko'nikmalarni egallash tajriba orqali o'rganishning yangi shakllari va usullarini talab qiladi. Zamonaviy kasb-hunar ta'limini rivojlantirishda, ayniqsa, ta'lim sohasida malakali mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu muammo uzoq vaqtdan beri dolzarb bo'lib kelgan. Kasbiy pedagogik ta'limning ahamiyati muttasil ortib bormoqda va bu amaliyotga ijodiy yondashishni taqozo etadi. O'zgarishlar malaka oshirish tizimiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ta'lim tizimini yuqori malakali o'qituvchilar va pedagoglar bilan ta'minlashni talab qiladi. Yangi sharoitda ulardan amaliy faoliyatda yangilik yaratish qobiliyati, muloqot va hamkorlikka tayyorlik, axborot-kommunikatsiya madaniyati, pedagogik mahorat, pedagogik muammolarni hal etishda yuksak ijodiy salohiyat talab etiladi. Ta'limning zamonaviy gumanistik paradigmasi nuqtayi nazaridan, talaba o'qituvchining ijodiy salohiyati uning kasbiy va shaxsiy fazilatlarining rivojlangan imkoniyatlari, boshqalar bilan muloqotni tashkil etish san'ati, turli sohalarda qadriyat munosabatlarini o'rnatishdagi tashabbuskorligi, bilim va faoliyatdagi ijtimoiy faollik, kasbiy jihatdan doimiy ravishda takomillashib borish qobiliyatidir. Davydovning ta'kidlashicha, "shaxsning ijodiy salohiyati" tushunchasining mazmunini "shaxsning tarkibiy shaxsiy-faoliyati va ijtimoiy ahamiyatga ega shakllanishi, shu jumladan shaxsning yashirin (zaxira) qobiliyatlari, uning ijodiy faoliyat uchun amalga oshirilgan (reallashtirilgan) qobiliyatlari" [7.24] sifatida ko'rib chiqish mumkin, shuningdek, shaxsning kasbiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishni belgilovchi bilim va ko'nikmalar, ko'nikmalar majmuasidir. Kreativ qobiliyatni baholash murakkab jarayon, chunki u ko'plab omillarga bog'liq va uni aniq o'lchash qiyin. Shunga qaramay, turli xil usullar va vositalar yordamida kreativlik darajasini baholash va rivojlantirish mumkin.

#### **Kreativlikni baholash usullarini keltirib o'tamiz:**

##### **1. Testlar:**

**-Divergent fikrlash testlari:** Ushbu testlar odamning bir muammoga turli xil yechimlar topish qobiliyatini baholaydi. Masalan, "G'ishtdan qanday foydalanish mumkin?" kabi savollarga imkon qadar ko'proq javob berish so'raladi. Bunda inson miyasida bir nechta javoblarni tayyorlaydi, o'zida variantlarni ishlab chiqadi.

**-TORRANCE ijodiy fikrlash testlari (TTCT):** Bu o'sha mashhur, dunyo pedagog va psixologlarining deyarli barchasi uchun tanish bo'lgan testlar fikrning ravonligi, moslashuvchanligi, originalligi va ishlab chiqilishi kabi ko'rsatkichlarni o'lchaydi.

**-Remote Associates Test (RAT):** Bu test ishtirokchilardan uchta so'zga umumiy bog'liqlikni topishni so'raydi. Masalan, "tush, qizg'in, qator" so'zlari uchun "uyqu" dominant to'g'ri javob bo'ladi. Testda ochib bermoqchi bo'lgan predmet mavzu va fan doirasida tanlanadi

##### **2. Ijodiy mahsulotlarni baholash:**

**-Amaliya ishlari:** Tinglovchilarning ijodiy loyihalari, taqdimotlari, ilmiy dasturlari va boshqa ijodiy mahsulotlari baholanadi. Baholash mezonlari originallik, mahorat, murakkablik va ifodaviylikni o'z ichiga oladi.

**-PORTFOLIO baholash:** Tinglovchining ma'lum vaqt davomida yaratgan ijodiy ishlar to'plami baholanadi. Bu uning kreativlik bo'yicha erishgan yutuqlari va o'sishini ko'rsatadi.

**3. Kuzatuv:**

**-Auditoriyada kuzatish:** O'qituvchi ishtirokchilarning dars jarayonida qanday ishtirok etishini, muammolarni qanday hal qilishini va yangi g'oyalarni qanday ilgari surishini kuzatadilar.

**-Guruhli loyihalarda kuzatish:** Tinglovchilarning guruhda ishlash, fikrlarni almashish va ijodiy yechimlar topish jarayonini kuzatish orqali ularning kreativlik darajasini baholash mumkin.

**4. O'z-o'zini baholash:**

**-Savolnomalar:** An'anaviy usul bo'lib, tinglovchilarga o'zlarining kreativ qobiliyatlarini baholashga yordam beradigan savolnomalar beriladi. Masalan: E.E.Tonik surovnomalari.

**-Refleksiya kundaliklari:** Tinglovchilar o'zlarining ijodiy jarayonlari, yutuqlari va qiyinchiliklari haqida yozadilar. Bu ularga o'zlarining kreativlik darajasini tushunishga yordam beradi.

**5. Expert baholash:**

**-Hakamlar hay'ati:** Soha mutaxassislari ularning ijodiy ishlarini baholaydilar. Hakamlar hay'ati turli xil mezonlar asosida baho beradi va tinglovchilarning ishlariga fikr bildiradi.

Ijodkorlik muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, jumladan, sezgi, natijalarni kutish, fantaziya, izlanish va mulohaza kabi fazilatlarini o'z ichiga oladi, degan fikrni ilgari suradi nostradartning shaxs haqidagi tafakkuri natijasi sifatidagi fikrlari tadqiqotchi G.Ibragimova[8.49]ning ijodkorlik tavsifining davomi sifatida ifodalangan, falsafiy ensiklopediya lug'atida kreativlik (lotincha kreativlik, ijodkorlik) ta'rif berilgan. Berilgan jarayonlar va muammolarga g'ayrioddiy tarzda yechim topishga qaratilgan ijodiy o'zgarishlar qobiliyati sifatida, ijodiy qobiliyat insonning ijodiy qobiliyatlari (fikrlash, his-tuyg'ular, muloqot, shaxsiy faoliyat) namoyon bo'lishi sifatida qaraladi. Umumiy olganda uning individual tomonlarini, faoliyat mahsullarini, ularni yaratish jarayonini tavsiflaydi. Z.T.Nishonova doktorlik dissertatsiyasida ijodkorlikka berilgan ko'plab ta'riflarni tahlil qilib, ijodiy fikrlash modelini yaratadi. "Ijodiy tafakkur tasavvur, idrok, bilim, ko'nikma, tafakkur, hurmat va motivatsiya asosida amalga oshirilishi lozim" [9.65] deb ta'kidlaydi. Taniqli rus pedagogi Tokarevaning ta'kidlashiga ko'ra, "pedagogik faoliyat har doim ijodiy xususiyatga ega bo'lib, uning adekvat subyekti ijodiy shaxs sifatida o'qituvchidir"[10.21]. Tokarevaning ta'kidlashicha, "universitetga tayyorgarlik jarayonida talabaning ijodkorlikka tayyorligini shakllantirishning asosi shaxsiy o'zini o'zi belgilash, ijodiy salohiyat va ijodiy faollik bo'lishi kerak"[11.22].

### TAHLIL VA NATIJALAR

Malaka oshirish tizimi mashg'ulotlarida tinglovchilar kreativlikning rivojlantirishning bosh maqsadi aqliy faoliyat va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdan iborat. Bunda ularda kreativlikning baholaydigan mezonlari mavjudligi talab etiladi. Ular quydagicha:

- **Ravonlik (Fluency):** G'oyalar soni. Qanchalik ko'p g'oya taklif etilsa, shunchalik yaxshi.
- **Moslashuvchanlik (Flexibility):** Turli xil g'oyalar taklif etish qobiliyati. G'oyalar qanchalik xilma-xil bo'lsa, shunchalik yaxshi.
- **Originallik (Originality):** Noyob va kamdan-kam uchraydigan g'oyalar yaratish qobiliyati.
- **Ishlab chiqish (Elaboration):** G'oyalarni batafsil ishlab chiqish va rivojlantirish qobiliyati.
- **Tasavvur (Imagination):** Yangi va nodatiy narsalarni tasavvur qila olish qobiliyati.
- **Muammolarni hal qilish (Problem-solving):** Muammolarni o'zgacha va samarali yechish qobiliyati.
- **Qiziqish (Curiosity):** Yangi narsalarni o'rganishga va bilishga intilish.

Shu bilan birgalikda pedagogik kreativlikni rivojlantirish sharti o'qituvchi pedagog va tinglovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda insonparvarlik tamoyillarini amalga oshirishga ham yordam beradi. Muloqot davomida o'zaro munosabatlar o'rnatiladi hamda auditoriyaga nisbatan umumiy xulosa shakllanadi. Ushbu xulosa asosida mashg'ulot rejasi tuziladi va ilmiy jarayonga kiritiladi. Tinglovchilarning aqliy salohiyatidan kelib chiqib metodlar tanlanadi.

Shunday qilib, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, pedagogning shaxsiy- kreativ salohiyatining tarkibiy asoslari:

**1. Motivatsion-qadriyatli komponent:**

**-Kasbiy motivatsiya:** Pedagogning o'z kasbiga bo'lgan qiziqishi, uni sevishi va undan qoniqish his qilishiga asoslangan ichki turtki. Bu motivatsiya pedagogning doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashi, ijodiy izlanishlar olib borishiga undaydi.

**-Ijodiy faoliyatga qadriyatli munosabat:** Pedagogning ijodkorlikni qadrlashi, uning ahamiyatini tushunishi va o'z faoliyatida namoyon etishga intilishi. Bu komponent pedagogning ijodiy jarayonlardan zavqlanishi, yangi g'oyalar yaratishga intilishi va ularni amalga oshirishga harakat qilishi bilan bog'liq.

**-O'z-o'zini takomillashtirishga intilish:** Pedagogning o'z shaxsiy va kasbiy sifatlarini doimiy ravishda yaxshilashga, o'z ustida ishlashga va yangi marralarni zabt etishga intilishi. Bu komponent pedagogning o'z xatolaridan saboq olishi, tanqidga ochiq bo'lishi va doimo o'sishga harakat qilishi bilan bog'liq.

## 2. Bilimlar komponenti:

**-Pedagogika va psixologiya sohasidagi bilimlar:** Pedagogning bolalar psixologiyasini, o'qitish metodlarini, tarbiyaviy texnologiyalarni va boshqa pedagogik bilimlar majmuasini mukammal bilishi. Bu bilimlar pedagogga o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga yordam beradi.

**-O'z fani bo'yicha chuqur bilimlar:** Pedagogning o'z fani bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lishi, uning asosiy qonuniyatlarini, zamonaviy yutuqlarini va rivojlanish tendensiyalarini bilishi. Bu bilimlar pedagogga o'quv materialini tushunarli, qiziqarli va zamonaviy tarzda yetkazib berishga yordam beradi.

**-Ijodiy faoliyat metodlari va texnologiyalari bo'yicha bilimlar:** Pedagogning ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodlari, muammoli ta'lim, loyihalar metodi, aqliy hujum, sinektika va boshqa ijodiy faoliyat texnologiyalari bo'yicha bilimga ega bo'lishi. Bu bilimlar pedagogga o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

## 3. Amaliy ko'nikmalar komponenti:

**-Ijodiy fikrlash ko'nikmalari:** Pedagogning yangi g'oyalar yaratish, muammolarni o'zgacha yechish, standart bo'lmagan vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi.

**-Kommunikativ ko'nikmalar:** Pedagogning o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar bilan samarali muloqot qila olishi, o'z fikrini aniq va tushunarli ifoda eta olishi, tinglash va tushunish qobiliyatiga ega bo'lishi.

**-Tashkilotchilik ko'nikmalari:** Pedagogning o'quv jarayonini tashkil etish, darslarni rejalashtirish, guruhlarda ishlashni tashkil etish, loyihalar va tadbirlarni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi.

**-Innovatsion ko'nikmalar:** Pedagogning ta'lim jarayoniga yangiliklar kiritish, o'qitishning yangi metodlarini sinab ko'rish, o'quv materiallarini zamonaviy talablarga moslashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi.

## 4. Shaxsiy sifatlar komponenti:

**-Qiziquvchanlik:** Pedagogning yangi narsalarga ochiq bo'lishi, doimo o'rganishga intilishi, bilim olishga chanqoqligi.

**-Moslashuvchanlik:** Pedagogning o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha olishi, yangi vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi, turli xil o'quvchilar bilan ishlashga tayyor bo'lishi.

**-Empatiya:** Pedagogning o'quvchilarning his-tuyg'ularini tushuna olishi, ularga hamdard bo'lishi, ularning muammolariga e'tiborli bo'lishi.

**-Sabr-toqat:** Pedagogning o'quvchilarning har xil savollariga, qiyinchiliklariga sabr bilan yondashishi, ularni qo'llab-quvvatlashi.

**-Hazil-mutoyiba:** Pedagogning o'quv jarayonini qiziqarli va yengil qilish uchun hazildan foydalana olishi, o'quvchilar bilan do'stona munosabat o'rnatish. Bulardan tashqari, o'z-o'zini hurmat qilish va turli xil pedagogik ish turlarida ijodkorlikka tayyorlikni shakllantirish" [12.35-38]. Umuman olganda, bu fikrlar to'g'ri. S. Savelyevaning fikricha, malaka oshirish tizimi talabalarning kasbiy rivojlanishida ijodiy salohiyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan muayyan pedagogik shartlarni nazarda tutadi, xususan: "ta'lim mikromuhiti faoliyat sub'yektiga shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatadigan

ijodiy muhitni yaratish mumkin, agar u mavzu-axborot mazmunidan tashqari, ijodiy xulq-atvor namunalariga ega bo'lsa"[13.20] deya o'z fikrini izohlab o'tadi. Albatta, ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonini bir qancha yo'nalishlarga bo'lish mumkin. Bu yo'nalishlar shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatga motivatsiyasini oshirish va zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib ular quydagilar:

1. Motivatsion yo'nalish;
- 2. Bilim berish yo'nalishi;**
- 3. Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish yo'nalishi;**
- 4. Shaxsiy rivojlanish yo'nalishi;**
- 5. Texnologik yo'nalish.**

### XULOSA

Bizning fikrimizcha, malaka oshirish tizimiga yangicha yo'nalishni qo'shish kerak. Bu yo'nalish ijodiy tasavvurni rivojlantirish, ijodiy faoliyatda o'zini o'zi belgilashga kuchaytirilgan holda e'tibor qaratadi. Ushbu yo'nalish tinglovchilarga kasb bo'yicha qaror qabul qilishda, o'zlarining ijodiy faoliyatini, imidjini va tamoyillarini tashkil etishda asosiy yondashuvlarni ishlab chiqishda yordam beradi. Fikrlashni rag'batlantiradi. Malaka oshirish tizimidagi o'quv jarayonida tinglovchilarda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularning o'z kasbiy faoliyati sub'ektlari sifatida rivojlanishining eng muhim shartidir. Ushbu faoliyatga tayyorlikni rivojlantirish o'z-o'zini rivojlantirishning yetakchi omilidir. Rivojlanish uchun shaxsiy fikrlash faoliyatining quyidagi shakllari tavsiya etiladi: seminarlarda javoblarni tahlil qilish va o'z-o'zini tahlil qilish, o'quv mashg'ulotlari, qatnashgan darslar, eslatmalar, shuningdek muhokamalar, bahslar, konferentsiyalar, ma'ruzalar, tezislar, insholar va yechimlar. Pedagogik vaziyatlar va shunga o'xshash treninglar tinglovchilarga juda yoqadi va ularning kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIVLILIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI. BOBAYEVA Z.M. (20.11.2021) <https://multiurok.ru/files/bolajak-pedagoglarning-kreativlilik-sifatlarini-ri.html>
2. Tarbiyachining kreativ salohiyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Mukimova M.F. (15-01-24) // Modern Science and Research, 2024. 3(1). Pp. 1–2. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28104>
3. Психология труда и профессионального развития учителя. Митина Л.М. (2014) Москва: Академия, 320 с.
4. Социальное лицемерие как профессионально обусловленная деформация личности педагога. Корнеева Н.А., Зеер Э.Ф. (2006): Науч.-метод. пособие. Екатеринбург. 57 с.
5. [2. В. 56]
6. Некоторые результаты комплексного исследования професси-ональной деформации личности учителя. Иванова Е.В. (2003)// Научный поиск. Вып.4. – Ярославль. 163 с.
7. Развитие творческого потенциала студентов педагогического вуза в процессе их внеучебной деятельности. Давыдова И.В. (2009) автореф. дис. ... канд. наук. – Санкт-Петербург. 166 с.
8. Maktabgacha ta'limda pedagogik diagnostika. Ibragimova G.N., Choriyev D.A. (2021) Toshkent: "Innovatsion-Ziyo". 124 b
9. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Nishonova Z.T.: psixologiya fanlari doktori (DcS)..diss.(2005). Toshkent. 391 b
10. Педагогические условия формирования готовности будущего учителя к творческой деятельности в профессиональной деятельности. Токарева Н.А.: автореф. дисс. ... канд. наук. (2009) Астрахан. 149 с
11. [10. В.22]
12. Развитие творческого потенциала учителя в условиях гуманизации образования. Дондокова Р.Б. (2014). Вестник БГУ. № 4. С 35–38.
13. Педагогические условия формирования профессиональной компетентности учителя в образовательном процессе вуза. Савельева С.С.: автореф. дисс. ... канд. наук. (2007) -Рязань. 206 с.